

**OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIM VA KOMPETENSIYALARINI
BAHOLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA**

*Madatov Ilhom Yusup o'g'li¹
Mardonova Elmira Shuxrat qizi²*

*¹Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*²Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
ilhommadatov7@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning bilim va kompetensiyalarini baholash tizimidagi mavjud holatni tahlil qilish, zamonaviy baholash texnologiyalarining afzalliklarini ilmiy asoslash hamda takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash zarurligi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: bilim, kompetensiya, baholash, texlogiya, ta'lim samaradorligi, zamonaviy yondashuv, o'quv motivatsiyasi, ijodiy fikrlash, o'quv faoliyati

**IMPROVING THE TECHNOLOGY OF ASSESSING STUDENTS'
KNOWLEDGE AND COMPETENCES IN HIGHER EDUCATIONAL
INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM**

Annotation: This article emphasizes the need to analyze the current state of the student knowledge and competence assessment system, to scientifically substantiate the advantages of modern assessment technologies, and to determine directions for their improvement.

Keywords: knowledge, competence, assessment, technology, educational efficiency, modern approach, learning motivation, creative thinking, pedagogical process

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ И
КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ
КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА.**

Аннотация: В данной статье отмечается необходимость анализа существующего состояния системы оценки знаний и компетенций студентов, научного обоснования преимуществ современных технологий оценивания, а также определения направлений их совершенствования.

Ключевые слова: знание, компетенция, оценивание, технология, эффективность обучения, современный подход, учебная мотивация творческое мышление, педагогический процесс

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim sifati har bir davlatning raqobatbardoshligi va intellektual salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. Yuksak malakali, ijodiy fikrlaydigan, analitik yondashuvga ega mutaxassislarni tayyorlash esa, avvalo, ta'lim jarayonida bilim va kompetensiyalarni to'g'ri baholash tizimining mavjudligi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy ta'lim jarayonida oliy ta'lim muassasalaridagi talaba yoshlarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini aniqlash an'anaviy baholashdan ko'ra murakkabroq va tizimli yondashuvni talab etadi. An'anaviy baholash tizimlari ko'proq ma'lum bilimlarni aniq dalillarga asoslangan holda eslab qolish darajasini o'lchashga yo'naltirilgan bo'lib, talabaning fikrlashi, real hayotiy vaziyatlarda bor bilimni qo'llay bilishi, muammoni hal etish, innovatsion qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni to'liq qamrab ololmas edi. Shu bois zamonaviy pedagogika fanida baholash tizimini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda va buning qonuniy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'risida" gi farmonining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan tamoyili hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida" gi farmonining "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan qismida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish hamda ta'lim oluvchilarga yetarlicha shart

sharoitlarni yaratib berish, va shu bilan bir qatorda zamonaviy bilim va ko'nikmalar hosil qilish kabi maqsad va vazifalarida o'z aksini topadi.

Asosiy qism.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilim va kompetensiyalarini baholash masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash tizimini shakllantirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda baholash texnologiyalarini takomillashtirish masalalari pedagogika fanining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy olimlar tomonidan baholash tizimining nazariy asoslari keng tadqiq qilingan. Jumladan, Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya ta'lim natijalarini baholashning asosiy mezonlaridan biri sifatida qo'llanilib kelinmoqda. U bilimlarni kognitiv darajalar bo'yicha baholash imkonini yaratdi [9, 3-4].

Kompetensiyaviy baholash va natijaga yo'naltirilgan ta'lim masalalari John Biggs tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, u "constructive alignment" konsepsiyasini ishlab chiqqan. Ushbu yondashuvda ta'lim maqsadlari, o'qitish metodlari va baholash vositalarining o'zaro uyg'unligi ta'minlanishi zarurligi asoslab berilgan [9, 4].

Baholashning zamonaviy shakllari, ayniqsa formatif baholash nazariyasi Paul Black va Dylan Wiliam tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Ular baholash jarayoni faqat natijani aniqlash emas, balki o'qitish samaradorligini oshirish vositasi ekanligini ilmiy asoslab bergan [9, 3].

Baholash mezonlari va akademik natijalarni aniqlash muammolari Royce Sadler ilmiy ishlarida ham muhim o'rin egallaydi. U baholash mezonlarining aniqligi va shaffofligi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslagan [9, 4].

Mahalliy olimlar tomonidan ham ta'limda baholash texnologiyalarini takomillashtirish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, Nemat Muslimov kasbiy ta'lim pedagogikasi doirasida talabalarning kompetensiyalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish masalalarini yoritgan [4, 54].

Shuningdek, Rustam Ishmuhammedov tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar asosida baholash tizimini tashkil etish, innovatsion baholash vositalaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan [5, 61].

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va baholash tizimlari samaradorligini oshirish masalalari Olim Tolipov ilmiy ishlarida ham yoritilgan bo'lib, unda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashning ahamiyati asoslab berilgan [6, 75].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda baholash tizimining nazariy asoslari chuqur ishlab chiqilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda baholash texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, ta'lim sifatini oshirish hamda milliy ta'lim tizimiga moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorlik kasb etishi baholash texnologiyalarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotlarlar shuni ko'rsatdiki, faqat oraliq va yakuniy nazoratga tayanish talabning rivojlanish dinamikasini to'liq aks ettirmaydi. Shu bois baholash texnologiyalarini takomillashtirish pedagogikaning dolzarb ilmiy muammosidir. O'zbekistonning yangi avlod o'quv dasturlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lib, baholashning monitoring, formativ baholash, reyting, portfolio, elektron baholash kabi zamonaviy shakllarini joriy etishni talab etadi. Demak, talabalar bilim va kompetensiyalarini baholash texnologiyasini modernizatsiya qilish — bugungi ta'lim strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalar bilim va kompetensiyalarini baholash texnologiyasini takomillashtirish — zamonaviy ta'limning strategik vazifasidir. Formativ baholash, mezonli yondashuv, portfolio, aqliy hujum, debat, jigso, o'zaro baholash va raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalarni to'liq tatbiq etish ta'lim sifatining oshishiga, talaba rivojlanishining haqqoniy baholanishiga xizmat qiladi hamda ta'lim tizimidagi muammolar bartaraf etiladi va rivojlanadi.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalar bilim va kompetensiyalarini baholash muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Oliy ta'limning asosiy

maqsadi – talabalarni nafaqat nazariy bilim bilan, balki amaliy ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyati bilan qurollantirishdir. Shu bois, baholash texnologiyasining samaradorligi oliy ta’lim jarayonida dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Baholashning asosiy vazifasi – talabalar o‘rgangan bilimlarini aniqlash, ularning amaliy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish, pedagogik jarayonni takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishdir. Biroq, amalda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida baholash tizimi samarali ishlamayotganligining guvihi bo‘lmoqdamiz, bu esa pedagogik jarayonga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli baholash texnologiyasini takomillashtirish – zamonaviy ta’limning muhim pedagogik muammosi sifatida ko‘riladi. Baholashning pedagogik ahamiyati va muammolar, talabalar bilimini baholash nafaqat o‘quv jarayonini nazorat qilish, balki talabalarni rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Samarali baholash orqali pedagoglar:

- 1.O‘quv jarayonida talabalarning bilim va ko‘nikmalari yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi;
- 2.O‘quv jarayonini zamon talablariga hamda xalqaro baholash dasturlariga moslashtiradi;
- 3.Talabalarni faollikka va o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantiradi;
4. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradi.

Agar yuqoridagi sifatlar shakllantirilmasa muammo sifatida qaralib, muammolar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiladi, talabalar kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini to‘liq rivojlantira olmaydi. Pedagogik terminologiyada kompetensiya – bu shaxsning ma’lum bir soha yoki faoliyat turida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasi hisoblanib u o‘z ichiga bir nechta komponentlarni qamrab oladi.

Kompetensiyaning asosiy komponentlari:

Bilim –nazariy tushunchalar, faktlar, qonuniyatlar;

Ko‘nikma – bilimlarni amaliyotda qo‘llash;

Malaka – mustaqil va sifatli faoliyat yuritish;

Shaxsiy sifatlar – mas’uliyat, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ qobiliyat.

Baholash texnologiyasi esa talabalar bilim va kompetensiyalarini tizimli va samarali baholash usullarini o‘z ichiga oladi hamda kompetensiyaning komponentlari orqali tizimli bahilash faoliyati amalga oshiriladi. Samarali baholash texnologiyasi quyidagi yondashuvlarni o‘z ichiga olishi lozim.

1. Ko‘p darajali baholash – nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy kompetensiyalarni alohida baholash;
2. Loyiha va vazifa asosida baholash – talabalar bilimlarini real vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini beradi;
3. Raqamli platformalar va interaktiv metodlar – elektron portfoliyo, onlayn testlar va monitoring tizimlari;
4. O‘zini baholash va tengdoshlar bahosi – talabalarni faollikka undaydi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
5. Baholash mezonlarini standartlashtirish – baholashning adolatli va shaffof bo‘lishini ta’minlaydi.

Quyida sanab o‘tiladigan baholashning yo‘llarini takomillashtirish, oliy ta’lim tizimida talabalar bilim salohiyatini oshishiga ko‘makchi bo‘la oladi. Buning uchun esa, oliy ta’limda baholashni takomillashtirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur. Baholashni takomillashtirishni quyidagi ko‘rinishda tashkil etish mumkin;

Kompetensiyalarga asoslangan baholash - ushbu baholash tizimida talabalar nafaqat bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini va shaxsiy kompetensiyalarini ham namoyon etadi. Masalan, matematikada faqat formulani bilish emas, balki murakkab masalani aynan yodlagan formulasidan kelib chiqqan holda yecha olish va uni amaliyotga tatbiq etish muhim.

Portfoliyo va loyiha ishlari orqali baholash - talabalar o‘z ishlarini portfoliyo shaklida taqdim etadi, loyiha ishlari orqali amaliy ko‘nikmalarini namoyon qiladi. Bu metod ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Raqamli va interaktiv texnologiyalar yordamida baholash – bu tarkibga onlayn testlar, elektron monitoring, simulyatsiyalar va gamifikatsiya metodlari talabalar bilimini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagoglar va talabalar uchun baholash jarayoni shaffof va oson nazorat qilinadigan bo‘ladi.

Pedagoglar malakasini oshirish orqali baholash texnologiyalarini rivojlantirish - baholash texnologiyasini samarali qo‘llash uchun pedagoglarning malakasini muntazam oshirish, zamonaviy metod va texnologiyalarni o‘rganishi zarur. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda muammolarni bartaraf etgan holda talabalar bilim, ko‘nikmalarini baholashni rivojlantirish yoki modernizatsiya qilish mumkin.

Hozirgi hunda esa baholash tizimida bir qancha kamchiliklar mavjud bo‘lin ular o‘quv jarayonining samarali tashkil etilishiga to‘sqinlik qiladi hamda o‘quv motivatsiyasining susayishiga olib keladi. Ular:

talabalarning amaliy ko‘nikmalari va kreativ fikrlashin yetarlicha baholamaydi;

raqamli va innovatsion metodlardan samarali foydalanilmaydi;

pedagoglar o‘z salohiyati hamda malakasini oshirish jarayoniga mas’uliyat bilan yondashmaydi;

raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga kirib kelishi jarayonidagi oqsoqlanish va boshqalar;

Ushbu muammolar orqali baholash jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Baholash mezonlarini standartlashtirish va shaffof qilish;
2. Ko‘p darajali va kompetensiyalarga asoslangan baholash tizimini joriy etish;
3. Raqamli platformalar va interaktiv metodlardan foydalanish;
4. Pedagoglar malakasini muntazam oshirish;
5. Talabalarni o‘zini baholash va tengdoshlar bahosi orqali faollikka undash.
6. Talabalarning tayyorlagan porfoliolarini tekshirgan holda oqilona baholash.

Natijada, takomillashtirilgan baholash tizimi talabalarni nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikmalar, kreativlik va shaxsiy kompetensiyalar bilan ham boyitadi, ularni zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh qiladi va oliy ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilim va kompetensiyalarini baholash texnologiyasini takomillashtirish – zamonaviy pedagogik jarayonning eng dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi baholash tizimi ko‘pincha nazariy bilimlarni baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, amaliy ko‘nikmalar, kreativ fikrlash va shaxsiy kompetensiyalarni yetarlicha aks ettirmaydi. Shu sababli pedagogik jarayon samaradorligini oshirish uchun baholash texnologiyasini yangilash va takomillashtirish zarur.

Baholash jarayonini takomillashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: ko‘p darajali va kompetensiyalarga asoslangan baholashni joriy etish, loyiha va portfoliyo baholash metodlarini qo‘llash, raqamli va interaktiv platformalardan foydalanish hamda pedagoglarning malakasini oshirish. Bu yondashuvlar talabalarni faollikka undaydi, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va shaxsiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Natijada, takomillashtirilgan baholash tizimi nafaqat talabalarni nazariy bilim bilan, balki amaliy, kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar bilan boyitadi. Bu esa ularni zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi hamda oliy ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

4. Madatov I. Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Monografiya. – Andijon, 2025.
5. Ziyomuhammadov B. Baholash tizimlari va pedagogik o'lchovlari, darslik – Toshkent, 2022.
6. Avliyoqulov N. Pedagogik texnologiyalar o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020.
7. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. Monografiya. – Toshkent, 2020.
8. Madatov I. Oliy o'quv yurtlarida talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishning joriy holatini o'rganish // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2025. – №1/6. – B. 109–112.
9. Urakov Sh.R., Madatov I.Y. Talabalar mustaqil ta'limini kompetentlikka yo'naltirilgan topshiriqlar asosida takomillashtirish muammolari // Pedagogik mahorat (BuxDU). – 2025. – №8. – B. 54–60.
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2019.